

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ GUMANITAR FANLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

AKIMNIYAZOVA GULNAZ ABDINAYIMOVNA

**AN'ANAVIY QORAQALPOQ BOZORI: O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI,
IXTISOSLIGI, SAVDOGARLARI (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning
birinchi yarmi)**

07.00.07– Etnografiya, etnologiya va antropologiya

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2023

Falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Akimniyazova Gulnaz Abdinayimovna

An’anaviy qoraqalpoq bozori: o‘ziga xos xususiyatlari, ixtisosligi, savdogarlari (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning birinchi yarmi)3

Акимниязова Гулназ Абдинайимовна

Традиционный каракалпакский базар: особенности, специализация, торговцы (вторая половина XIX – первая половина XX века).....27

Akimniyazova Gulnaz Abdinayimovna

Traditional karakalpak bazaar: features, specialization, merchants (second half of the 19th – first half of the 20th century).....51

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....55

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QORAQALPOQ GUMANITAR FANLAR ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI**

AKIMNIYAZOVA GULNAZ ABDINAYIMOVNA

**AN'ANAVIY QORAQALPOQ BOZORI: O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI,
IXTISOSLIGI, SAVDOGARLARI
(XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning birinchi yarmi)**

07.00.07– Etnografiya, etnologiya va antropologiya

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Tar1266 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpog' gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida www.karsu.uz hamda "ZiyoNet" axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kurbanova Zemfira Ibragimovna
tarix fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy taqrizchilar:

Zununova Gulchexra Shavkatovna
tarix fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Matkarimova Sadoqat Maksudovna
tarix fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpog' davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Tar.20.05 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil « 17 » X soat 14.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 230100, Nukus sh., Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99361) 223-60-49; Faks: (361) 223-60-49; e-mail: karsu_info@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Qoraqalpog' davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (155 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 230100, Nukus sh., Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99361) 223-60-49; Faks: (361) 223-60-49)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil « 04 » X kuni tarqatildi.

(2023 yil « 04 » X dagi 4 - raqamli reestr bayonnomasi).



R.B. Balliyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

H.M. Otegenov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent

B.A. Koshanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon zamonaviy etnologik tadqiqotlarida an'anaviy Sharq bozori muammosi dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Sharq mamlakatlari bozorlari mintaqa madaniyati va iqtisodiyotining muhim elementi hisoblanib, ularning rivojlanishi, davriy o'zgarishi mazkur mamlakatlar tarixi va madaniyatini yanada yaxshiroq tushinishga yordam beradi. Bundan tashqari, an'anaviy bozor ijtimoiy o'zaro ta'sir va axborot almashish makoni bo'lib xizmat qiladi, bu esa mazkur mavzuni etnologlar uchun ayniqsa jozibador qiladi.

Yetakchi ilmiy markazlar olib borayotgan tadqiqotlar an'anaviy bozorlarni asosan Sharq shaharlarining takrorlanmas qiyofasini shakllantiradigan moddiy va ijtimoiy innovatsiyalar, madaniyatlarning o'zaro ta'sir qilish joyi sifatida o'rganishga bag'ishlangan. Mahalliy jamoalarning yirik savdo tarmoqlari, madaniyat va siyosiy hokimiyat bilan bog'lanishidagi bozorning o'rniga urg'u bergan holda zamonaviy Osiyoni kompleks tadqiq qilish bilan quyidagi ilmiy markazlar shug'ullanadi, Gollandiyadagi Osiyoni tadqiq qilish markazi¹; Vashington universiteti qoshidagi Jekson nomidagi Xalqaro tadqiqotlar markazi (The Jackson School of International Studies at the University of Washington)², o'z ilmiy faoliyati bilan dunyoning katta qismini, etnologiya va ijtimoiy antropologiya bo'yicha yirik mavzularni qamrab olgan Ijtimoiy antropologiya laboratoriyasi (Collège de France, le Laboratoire d'anthropologie sociale)³, Kolumbiya universiteti qoshidagi Garriman instituti (The Harriman Institute at Columbia University)⁴, Antropologiya xalqaro markazi⁵ va boshqalar. Har qanday shahar yoki aholi yashash joyi uchun uning zarur qismini tashkil qilgan bozor davr iqtisodiy makonida savdo aloqalarining tarkib topgan tizimining shakllanishini ta'minlaydigan mexanizmi bo'lib xizmat qilgan. Xususan, etnologik tadqiqotlarda an'anaviy bozor masalalari "bozor antropologiyasi" kontekstida ko'riladi.

O'zbekistonda an'anaviy bozorning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish mamlakatimizda kechayotgan etnomadaniy jarayonlarni tushunish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyo mamlakatlarida bozor o'ziga xos etnomadaniy xususiyatlarga ega bo'lgan, bu moddiy va ijtimoiy yangilanishlarning qayta taqsimlanishi, o'zga madaniyatlar ta'sirida uning egallagan o'rni bilan shartlab berilgan, ushbu omillarning o'zaro ta'siri uning takrorlanmas jozibadorligini shakllantirgan. Shaharlar, ovullar aholisining kundalik hayotida an'anaviy bozor nafaqat tirikchilikning muhim mexanizmi, shahar va qishloq joylar makonining tashkil bo'lish elementi bo'lgan, balki halq madaniy an'analarini translyatsiya qilish rolini bajargan. Bozor axborot markazi, ijtimoiy fikrni shakllantiruvchi makon sifatida ulkan ahamiyat kasb etadi.

¹International Institute for Asian Studies // <https://www.iias.asia/the-newsletter/article/bazaars-crossroads-what-they-reveal-about-informality-globalization-and>

²Школа международных исследований имени Генри М. Джексона // <http://jsis.washington.edu>

³Arts et techniques / <http://las.ehess.fr/index.php?2618>

⁴The Harriman Institute at Columbia University // The Harriman Institute at Columbia University

⁵Национальный исследовательский университет «Высшая школа экономики» // <https://hist.hse.ru/ica/>

An'anaviy qoraqalpoq bozori o'ziga xos etnomadaniy jihatlarga ega. U an'anaviy qadriyatlar, xalq urf-odatlarini saqlab kelayotgan an'anaviy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuningdek u madaniyatlar va axborot almashish joyi bo'lgan. Bozor makoni insonlarning ma'naviy boyishi, birlashishiga yordam bergan, bu yerda aholi turli qatlamlarining vakillari savdo-sotiq bitimlarini tuzishda qatnashgan. Hafta davomida to'plangan charchoq va zo'riqishdan forig' bo'lishda ham bozor muhim ahamiyat kasb etgan. Turli musobaqalar va teatrlashtirilgan tomoshalar, yaqin kishilar bilan muloqot qilishdan iborat bo'lgan madaniy dam olish keyingi bozorgacha ijobiy his-tuyg'ularga ega bo'lish imkonini bergan. Bugungi kunda an'anaviy bozorni tadqiq qilishning dolzarblashishi zamonaviy jamiyat ko'p hollarda uni o'z etnik madaniyatini belgilaydigan element sifatida tan olishi bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 4 apreldagi PQ-1326 «Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorida⁶, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 fevraldagi «Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonida⁷, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-son «O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmonida⁸; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»⁹gi Farmonida, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy – huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy rivojlanishida innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Adabiyotlarning tavsifiga murojaat qilganda shuni alohida ta'kidlash kerakki, bugungi kunga qadar qoraqalpoq bozorining etnomadaniy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar mavjud emas. Ko'p hollarda bozor etnografik xarakterdagi asarlarda ko'rib chiqilgan.

Tadqiqot vazifalari va metodologik talablardan kelib chiqib, mazkur muammo bo'yicha adabiyotlarni shartli ravishda quyidagi uch guruhga bo'lish mumkin: 1) XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning birinchi choragida amalga oshirilgan tadqiqotlar; 2) sovet davri adabiyotlari; 3) mustaqillik davri adabiyotlari.

Birinchi guruh adabiyotlari savdo-sotiq, yirik savdo markazlariga ega shaharlar, bozorlar, tovarlar assortimenti va sovet davridan oldingi davrda

⁶ lex.uz/docs/1620567.

⁷ <https://fsvps.gov.ru/ru>

⁸ <https://lex.uz/ru/docs/4143186>

⁹ <https://lex.uz/docs/5841063>

mintaqadagi iqtisodiy faoliyatning boshqa jihatlariga bag'ishlangan tadqiqotlarni o'z ichiga olgan. Mazkur ishlar tavsifiy xarakterga ega bo'lib, tadqiqotchilarning kuzatuvlari va shaxsiy tajribasiga asoslangan¹⁰.

Sovet davrida mintaqada savdo-iqtisodiy munosabatlarning tadqiqi tarixiy-qiyosiy usulgan asoslangan, bu usul mintaqada savdo-iqtisodiy aloqalar rivojlanishini jahon iqtisodiy tarixi kontekstida tiklash imkonini bergan. Ushbu tadqiqotlar, birinchi davrdan farqli o'laroq, ilmiyligi va tizimli yondashuv bilan ajralib turadi¹¹.

Uchinchi guruh tadqiqotlari O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilingandan so'ng nashr qilingan ishlarni o'z ichiga oladi. Bular tarixchi, etnograf, madaniyatshunos, iqtisodchi kabi olimlar ishlari bo'lib, ular arxiv va boshqa manbalardan keng foydalangan holda yozilgan. Ular Markaziy Osiyo bozorlari hamda mintaqadagi savdo-iqtisodiy munosabatlar haqida yanada to'liq tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi¹².

¹⁰ Небольсин П.И. Очерки торговли России с Средней Азией // ЗИРГО. Кн. X. – СПб., 1855; Каразин Н.Н. В низовьях Аму. Путевые очерки // Вестник Европы. – М., 1875; Кун А. Культура оазиса низовьев Амударьи // Материалы для статистики Туркестанского края. Вып. IV. – СПб., 1876; Каульбарс А.В. Низовья Аму-Дарьи описанные по собственным исследованиям в 1873 г. // ЗИРГО. – СПб., 1881; Авдакушин И. Санитарный обзор Аму-Дарьинского отдела с 1887 по 1891 г. // Сборник материалов для статистики Сырдарьинской области. – Ташкент, 1892; Абаза К.К. Завоевание Туркестана. СПб, 1902; Гиршфельд и Галкин. Военно-статистическое описание Хивинского оазиса. Ч. II. – Ташкент, 1903; Авдакушин И. Санитарный обзор Аму-Дарьинского отдела с 1887 по 1891 г. // Сборник материалов для статистики Сыр-Дарьинской области. – Ташкент, 1892; Масальский В.И. Туркестанский край. Россия // Полное географическое описание нашего отечества, под редакцией В.П. Семенова. Т. 19, 10. – СПб., 1913. Б. 756; Материалы по обследованию кочевого и туземного хозяйства и землепользования в Аму-Дарьинском отделе Сыр-Дарьинской области. Вып. I. – Ташкент, 1915 ва б.

¹¹ Архипов Н.Б. СССР по районам. Средне-Азиатские республики. – М.-Л., 1927; Алкин И. Средняя Азия. Экономико-географический очерк Кара-Каракалпакстана, Киргизстана, Таджикистана, Туркменистана, Узбекистана. Ч. I. – М., 1931; Иванов П.П. Очерк истории каракалпаков // Труды первой конференции по изучению производительных сил ККАССР. Т. 2. – Л., 1934; Шалекенов У. Быт каракалпакского крестьянства Чимбайского района в прошлом и настоящем // ТХАЭЭ. Т. 3. – М., 1958; Досумов Я.М. Очерки истории Каракалпакской АССР. 1917-1927. – Ташкент, 1960; Камалов С.К. Каракалпаки в XVIII-XIX веках. – Ташкент, 1968; Қосбергенов Р.К. XIX эсирдин ақыры XX эсирдин басындағы Қарақалпақ халқының мәдениеті хәм турмысы. – Нөкис, 1974; Айымбетов Қ. Халық даналығы. – Нөкис, 1988; Аминов А.М. Экономическое развитие Средней Азии (со второй половины XIX века до первой мировой войны). – Ташкент, 1959; Садыков А.С. Экономические связи Хивы с Россией во второй половине XIX – начале XX вв. – Ташкент, 1965; Тохтаметов Т.Г. Амударьинский отдел. – Нукус, 1977; Каракалпаки (Краткий очерк истории с древнейших времен до наших дней). – Ташкент, 1971; Қарақалпақстан АССРы тарийхы. Әййемги заманнан баслап, уллы Октябрь социалистлик революциясына дейин. Т. 1. – Нөкис, 1975; Джалилов О. XIX-XX аср бошларидаги Қарақалпақ тарихига оид муҳим ҳужжатлар. – Тошкент, 1977; Джалилов О. XIX-XX аср бошларидаги қарақалпақ тарихидан (Хива давлат ҳужжатлари асосида). – Тошкент, 1986 ва б.

¹² Михалева Г. А. Узбекистан в XVIII- первой половине XIX века. Ремесло, торговля и пошлины. – Ташкент: ФАН, 1991; Есбергенов Х. Қоңырат. Тарийхый хәм мәдений естеликлери. – Нөкис, 1993; Зияева Д. XIX – XX аср бошларида Туркистон шаҳарлари тадқиқотлари тарихидан // O'zbekiston tarixi. – Тошкент, 2007. - № 3. – Б. 18-29; Савицкая Н.А. История развития рыночной торговли и базаров города Ташкента в колониальный период (1865-1917). – Ташкент, 2012; Зияева Д. Ўзбекистон шаҳарлари XIX асрнинг иккинчи ярми-XX аср бошларида. – Тошкент, 2013; Сейдаметова Г.У. Ходжейли - центр торговли каракалпаков (XIX-начало XX вв.) // Торговля в этнокультурном измерении: Материалы Четырнадцатых Международных Санкт-Петербургских этнографических чтений. – Санкт-Петербург, 2015. – С. 212-215; Агзамова Г.А. Хива хонлиги савдо инфратузумлари тарихидан // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларида. – Ташкент-Урганч, 2019; Охунжонова Ш.Ю. XIX аср ўрталари - XX аср бошларида Фарғона водийси бозорлари тарихидан // Scientific journal of the Ferghana State University. – Фарғона, 2019. - № 3. – Б. 64-67; Нурмухамедов М.К. Академик Марат Нурмухамедов. Прыжок. – Ташкент, 2020; Сайманов С. Историография истории городов Каракалпакстана // Научный Татарстан. – Казань, 2020. - № 2. – Б. 16-23; Кудияров А. Шымбай тарийхынан. – Нөкис, 2021 ва б.

Umuman olganda, an'anaviy bozorni tadqiq qilishning tarixshunoslik maydoni deyarli keng ko'lamli bo'lib, unda B.A.Koshanov, A.M. Djumashev¹³, A.X. Doniyorov¹⁴ kabi olimlar tadqiqotlarini ajratib ko'rsatishni zarur deb topdik. garchi ular bizning tadqiqotimiz ob'ekti bilan bevosita bog'liq bo'lmasa-da, o'rganilayotgan muammo bo'yicha ba'zi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi

Dissertatsiyaning birinchi bobi mazkur muammo tarixshunosligining ushbu uch davrining ilmiy tahliliga bag'ishlangan bo'lib, unda muammoning o'rganilganlik darajasi batafsil tavsiflab berilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zR FA QQB Gumanitar fanlar Qoraqalpoq ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy-tadqiqotlar rejasiga muvofiq, PZ-20170915198-raqamli «Qoraqalpoq jamiyatida ijtimoiy ko'rsatmalarning transformatsiyasi: tarix va amaliyot» (1918-1920 yy.) nomli amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning birinchi yarmida an'anaviy qoraqalpoq bozorini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

adabiy manbalar, arxiv materiallari, muallifning dala tadqiqotlari materiallari asosida mazkur muammoning manbaviy asosini shakllantirish;

bozorni ijtimoiy-iqtisodiy uklad bilan chambarchas bog'liq holda shahar infratuzilmasining muhim qismi sifatida tadqiq qilish;

savdogarlar toifasining eng yirik vakillarini aniqlash va ularning savdo-sotiqni rivojlantirishdagi rolini ko'rsatish;

qoraqalpoqlarning yirik shaharlari ixtisoslashtirilgan bozorlarining turlariga, shuningdek, metrologik tizimining xususiyatlariga qisqacha ilmiy tavsif berish;

bozorning ko'ngilochar markaz sifatidagi rolini aniqlash;

bozorga kelgan kishilar dam oladigan, ulovlar joylashtiriladigan joy, ya'ni *sharbaq* hodisasini tadqiq qilish;

qoraqalpoq halq ijodiyotida savdo-sotiq va savdogar obrazlarining aks ettirilishini o'rganish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning birinchi yarmida an'anaviy qoraqalpoq bozori belgilandi.

Tadqiqotning predmetini XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning birinchi yarmida an'anaviy qoraqalpoq bozori amal qilishining o'ziga xos xususiyatlari, savdogarlar tabaqasining faoliyati, bozorning yangiliklar bilan o'rtoqlashish va muloqot markazi sifatidagi o'rni tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Qo'yilgan vazifalarni hal qilish uchun turli fanlar manbalaridan foydalanishni ko'zda tutadigan kompleks yondashuv qo'llanildi. Kompleks yondashuv etnolog va tarixchilar tomonidan keng foydalaniladi, ular faqat bir fanning ma'lumotlari, masalan, etnografiyaning maxlumotlari tarix, filologiya, sotsiologiya kabi boshqa turdosh fanlardan ajratilgan holda a'anaviy-

¹³ Кошанов Б.А., Джумашев А.М. Зарубежная и отечественная историография истории Туркестана, Хорезма и Каракалпакстана в первой четверти XX века. – Нукус, 1997.

¹⁴ Дониёров А.Х. Марказий Осиё халклари тарихшунослиги. – Тошкент, 2021.

maishiy va zamonaviy madaniyatlar bilan shartlangan insoniyat madaniyatining murakkabligi haqida to'liq va to'g'ri tasavvur bera olmaydi, deb hisoblaydilar.

An'anaviy qoraqalpoq bozorini tadqiq qilishda qo'llanilgan sivilizatsion yondashuv bozorni qoraqalpoq xalqining madaniy va sivilizatsion identikligining tarkibiy qismi sifatida ko'rishni taqozo qiladi. Mazkur yondashuv bozorni nafaqat tovarlarni sotish va almashtirish joyi, balki muloqot, madaniyat, urf-odatlar kabi jamiyat hayotining ko'p jihatlarini o'z ichiga olgan ijtimoiy hodisa sifatida o'rganish imkonini beradi.

Dissertatsiya ishida intervyu, so'rovnoma yordamida ma'lumotlarni to'plash, o'rganilayotgan ob'ektlar va hodisalarni sinchkovlik bilan qayd etishdan iborat bo'lgan maxsus etnografik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kasbi savdogarlik bo'lib, uzoq mamlakatlardan tovarlar olib keladigan hamda o'z mahsulotlarini sotadigan shaxslar kabi ikki guruhga bo'lingan savdogarlar - *sawdager* tabaqasi shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek ularning ichki (hunarmandchilik mahsulotlari, chorva, kiyim-kechak va b. savdosi) va tashqi savdo-sotiqdagi (metall, teridan tayyorlangan mahsulotlar, attorlik mollari) o'rni aniqlangan;

qoraqalpoq bozorlarida savdo munosabatlari, savdo qilish uchun *zakot*, o'rin uchun to'lov - *orin pul*, tarozidan soliq - *tarezi pul* kabi mavjud soliqlar turlari, soliq solishning o'ziga xosligi, og'irlik - *batpan, onseri, siyseri, ag'ari* va o'zunlik - *shaqirim, qulash, qaris* - me'yorlarining o'ziga xosligi ochib berilgan;

bozorlarning axborot almashish, muloqot, madaniy dam olish kabilar amalga oshirilgan kommunikativ markaz sifatidagi o'rni asoslangan; *sharbaq* deb nomlangan an'anaviy yuk hayvonlari joylashtiriladigan, bozorga kelgan kishilar dam oladigan joyning unga tashrif buyurganlar dam olishi, ovqatlanib olishi, o'z tovarlarini saqlashi, shuningdek o'z ot-ulovli aravalarini vaqticha qoldirishi mumkinligi kabi uning etnomadaniy xususiyatlari ko'rsatib berilgan;

savdogar obrazi ijobiy va ayni vaqtda salbiy tavsiflangan xalq og'zaki ijodi asarlari, xalqning savdo-sotiq va u bilan bog'liq ishlarga munosabati aks etgan ertaklar, rivoyatlar, matal va maqollar aniqlangan va tahlil qilingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tadqiqot jarayonida olingan natijalardan etnografik manbalar to'plamlarini ishlab chiqish, qoraqalpoq xalqi etnografiyasi bo'yicha umumlashtirilgan ilmiy ishlarni yozish, qoraqalpoqlar etnografiyasi bo'yicha maxsus kurslar tashkil qilish, shuningdek mintaqa iqtisodiy antropologiyasi bilan bog'liq masalalarni tadqiq qilishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ob'ektivlik va tarixiylik kabi sof ilmiy tamoyillardan foydalanish, shuningdek, faktologik manbalarga (qo'lyozmalar, arxiv materiallari, dala yozuvlari) tayangan strukturaviy-funksional tahlil usuli qo'llanganligi bilan izohlanadi

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ularning respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar materiallari to'plamlarida, O'zR OAK tomonidan tavsiya qilingan jurnallarda va xorijiy nashrlarda chop etilganligi bilan ham tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati an'anaviy qoraqalpoq bozori etnomadaniy xususiyatlarini yoritishda mazkur muammoga metodologik yondashuvlar va nazariy xulosalardan foydalanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning natijalarining amaliy ahamiyati qoraqalpoq bozorlari etnomadaniy xususiyatlarini tadqiq qilish natijalari asosini jamiyatning ma'naviy va madaniy rivojlanishi, umuman O'zbekiston xalqlari tarixi, madaniy merosining o'ziga xosligini o'rganish tashkil qilgan istiqboldagi davlat dasturlarini bajarish, shuningdek jahon xalqlari etnik madaniyati bo'yicha bilimlarni boyitish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qoraqalpoq bozorining etnomadaniy xususiyatlarini tadqiq qilish asosida olingan natijalar quyidagilarda foydalanilgan:

kasbi savdogarlik bo'lib, uzoq mamlakatlardan tovarlar olib keladigan hamda o'z mahsulotlarini sotadigan shaxslar kabi ikki guruhga bo'lingan savdogarlar - *sawdager* - tabaqasi shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek ularning ichki (hunarmandchilik mahsulotlari, chorva, kiyim-kechak va b. savdosi) va tashqi savdo-sotiqdagi (metall, teridan tayyorlangan mahsulotlar, attorlik mollari) o'rniga oid natijalardan PZ-20170915198-raqamli «Qoraqalpoq jamiyatida ijtimoiy ko'rsatmalarning transformasiyasi: tarix va amaliyot» (2018-2020 yy.) nomli amaliy loyihani bajarish jarayonida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Qoraqalpoq bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2022 yil 7 dekabrda 503/1-sonli ma'lumotnomasi). Xususan, joriy qilingan natijalar shahar bozorlari amal qilishining tarixiy dastlabki shartlarini o'rganish, ularni o'rganilayotgan davr aholi ijtimoiy hayotiga ta'sirini, shuningdek yangi ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitlarda ularning o'rnini o'rganish imkonini bergan;

qoraqalpoq bozorlarida savdo munosabatlari, savdo qilish uchun *zakot*, o'rin uchun to'lov - *orin pul*, tarozidan soliq - *tarezi pul* kabi mavjud soliqlar turlari, soliq solishning o'ziga xosligi, og'irlik - *batpan, onseri, siyseri, ag'ari* va o'zunlik - *shaqirim, qulash, qarish* - me'yorlarining o'ziga xosligiga oid ma'lumotlar va natijalardan O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Qoraqalpoqiston Respublikasining Madaniy meros boshqarmasi bukletlari va ekskursiyalari uchun materiallar tayyorlashda, shuningdek Qoraqalpoqiston Davlat tarix va madaniyat muzeyida ko'rgazma va ekskursiya ma'ruzalari matnlarini tayyorlashda foydalanilgan (Qoraqalpoq Davlat tarix va madaniya muzeyining 2023 yil 6 fevraldagi 44-sonli ma'lumotnomasi). Xususan, savdo-sotiqning rivojlanishi, savdogarlar qatlamining tarqib topishi, tovarlar assortimenti, shahar bozorlarining me'moriy qiyofasi haqidagi ma'lumotlar shaharlar hayoti, hunarmandchilikning rivojlanishi, qoraqalpoqlar savdo munosabatlarini yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qilgan;

bozorlarning axborot almashish, muloqot, madaniy dam olish kabilar amalga oshirilgan kommunikativ markaz sifatidagi o'zni; sharbaq deb nomlangan an'anaviy yuk hayvonlari joylashtiriladigan, bozorga kelgan kishilar dam oladigan joyning unga tashrif buyurganlar dam olishi, ovqatlanib olishi, o'z tovarlarini

saqlashi, shuningdek o'z ot-ulovli aravalarini vaqticha qoldirishi mumkinligi kabi uning etnomadaniy xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar Qoraqalpoqiston televideniesining «Assalam Qoraqalpaqstan» teledasturini tayyorlashda foydalanilgan (Qoraqalpoqiston Respublikasi teleradiokompaniyasining 2022 yil 28 dekabrda 05-22/04-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ular xalq boy ma'naviy merosini targ'ib qilish, savdo-sotiq bilan bog'liq an'ana va odatlarni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 12 ilmiy anjumanlarda, shu jumladan 4 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 27 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, shu jumladan 7 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi 172 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzabliki asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti yoritilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, uning ilmiy yangiligi isbotlangan, muammoning o'rganilgan darajasi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, tadqiqotning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Muammoning tarixshunoslik nuqtai nazardan sharhi va manbalari**» deb nomlangan birinchi bobida Sharq bozorlarini tadqiq qilishda gumanitar fanlarning keng doirasida foydalaniladigan zamonaviy fanda shakllangan ilmiy yondashuvlar taqdim qilingan, muammoning tarixshunosligi, foydalanilgan manbalar ko'rib chiqilgan.

«**Muammoning Markaziy Osiyoga oid tarixshunosligi**» deb nomlangan bobning birinchi paragrafi an'anaviy bozorni tadqiq qilishda metodologik yondashuvlar rivojlanishi dinamikasiga bag'ishlangan. Ushbu muammo bugungi kungacha maxsus tadqiqot ob'ektiga aylanmaganligi ta'kidlangan.

Qoraqalpoq bozorlarining etnologik xususiyatlari ko'rib chiqilgan mavjud ilmiy adabiyotlarni shartli ravishda quyidagi uch guruhga bo'lish mumkin: 1) XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning birinchi choragida amalga oshirilgan tadqiqotlar; 2) sovet davri adabiyotlari; 3) mustaqillik davri adabiyotlari.

Birinchi guruh manbalari ko'lami deyarli keng bo'lib, ular ichiga maxsus adabiyotlar doirasiga kirmaydigan, lekin shunga qaramasdan biz uchun qimmatli bo'lgan tadqiqotlar kiradi. Bu keyingi tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qilgan ilmiy ekspeditsiyalar ishtirokchilari asarlari. Bu asarlarda Hiva xonligi, xonlik shaharlarida savdo-sotiqning tavsifiga asosiy e'tibor qaratilgan, o'zaro savdo

munosabatlarining ba'zi jihatlarini oydinlashtiradigan ma'lumotlar keltirilgan. Mazkur davrda yaratilgan ishlar ichida G.I. Danilevskiy¹⁵, P.I. Nebolsin¹⁶, M.Galkin¹⁷, A.L. Kun¹⁸, A.V. Kaulbars¹⁹, shuningdek V.V. Lobachevskiy²⁰, V.I. Masalskiy²¹ tadqiqotlari alohida e'tiborga molik. Xo'jalikni tadqiq qilish bo'yicha materiallar, xususan, ularda keltirilgan Chimboy aholisi, savdogarlar tarkibi haqidagi statistik ma'lumotlar tadqiqot uchun foydali bo'ldi²².

Ikkinchi guruh adabiyotlari tadqiqotlar keng blokini tashkil qiladi. Ushbu davrda ham maxsus tadqiqotlar, ham ba'zi etnografik ma'lumotlarga ega umumiy xarakterdagi asarlar yaratilgan. An'anaviy bozor xususiyatlariga bag'ishlangan maxsus adabiyotlar mavjud emas. Lekin alohida tadqiqotlarda bozor yoki savdosotiq haqidagi ma'lumotlar uchraydi.

Bozor haqidagi ba'zi ma'lumotlarni sovet davrining ilk qoraqalpoq tarixchilari va etnograflari asarlarida uchratish mumkin. Ushbu asarlarning aksariyati XVIII asrdan boshlanadigan qoraqalpoqlar tarixiga bag'ishlangan. Ular ichida U. Shalekenov, Ya. Dosumov, S. Kamalov, R.Kosbergenov²³ asarlarida eng ko'p ma'lumotlar keltirilgan.

O'rganilayotgan muammo bo'yicha qiziqarli ma'lumotlar mashhur folklorchi olim K.Ayimbetovning asarida keltirilgan. Tadqiqotimizda uning asarida keltirilgan Chimboy bozori, bozorga kelgan kishilar dam oladigan, ulovlar joylashtiriladigan joyi, ya'ni *sharbaq*, ixtisoslashlgan bozorlar, savdogarlar haqida ma'lumotlardan keng foydalanilgan²⁴.

A.Aminov soliq solish tizimini tavsiflagan holda, soliqlar turlarini yortib bergan, ko'chmanchilar podalaridan olinadigan soliq, hunarmandlardan olinadigan yig'implarni muallif bojxona solig'i ko'rinishiga ega bo'lgan zakot (zakyat – A.G.) - soliqlarning muhim turi bo'lganligini ta'kidlaydi. Savdo karvonlari hamda sovdo o'rinlaridan olinadigan yig'implar ham zakot - «tegiyay» (bojxona solig'i)²⁵ deb nomlangan.

T.G. Toxtametov ishida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning Amudaryo bo'limi mavzusi keng yoritilgan. Tadqiqotda ichki bozorning rivojlanishida, savdo

¹⁵ Данилевский Г.И. Описание Хивинского ханства // Записки Русского географического общества. Кн В. – СПб., 1851.

¹⁶ Небольсин П.И. Очерки торговли России с Средней Азией // ЗИРГО. Кн. X. – СПб., 1855.

¹⁷ Галкин Н.М. Этнографические и исторические материалы по Средней Азии и Оренбургскому краю. – СПб., 1868.

¹⁸ Кун А.Л. Культура оазиса низовьев Аму-дарьи // Материалы для статистики Туркестанского края. Вып. IV. – СПб., 1876.

¹⁹ Каульбарс А. Низовья Аму-дарьи, описанные по собственным исследованиям в 1873 г. – СПб., 1881.

²⁰ Лобачевский В.В. Военно-статистическое описание Туркестанского военного округа. Хивинский район. – Ташкент, 1912, б. 15.

²¹ Масальский В.И. Туркестанский край. Россия // Полное географическое описание нашего отечества, под редакцией В.П. Семенова. Т. 19, 10. – СПб., 1913.

²² Материалы по обследованию кочевого и туземного хозяйства и землепользования в Аму-Дарьинском отделе Сыр-Дарьинской области. Вып. I. – Ташкент, 1915.

²³ Шалекенов У. Быт каракалпакского крестьянства Чимбайского района в прошлом и настоящем // ТХАЭЭ. Т. 3. – М., 1958, бб. 269-272; Досумов Я.М. Очерки истории Каракалпакской АССР. 1917-1927. - Т., 1960; Камалов С.К. Каракалпаки в XVIII-XIX веках. – Ташкент, 1968; Қосбергенов Р.К. XIX эсирдин акыры XX эсирдин басындағы Каракалпак халқының мәдениети хэм турмысы. – Нөкис, 1974.

²⁴ Айымбетов Қ. Халық даналығы. – Нөкис, 1988.

²⁵ Аминов А.М. Экономическое развитие Средней Азии (со второй половины XIX века до первой мировой войны). – Ташкент, 1959.

markazlari o'rtasidagi aloqalarning kuchayishida bozorning muhim ahamiyati ta'kidlab o'tilgan²⁶.

O.Jalilovning ishida, Hiva xonlari arxiv xujjatlarining tahlili asosida, Chimboy va Qo'ng'iro't shaharlari qoraqalpoqlar va qozoqlarning ma'muriy markazlari bo'lganligi, Xo'jayli va Nukus shaharlari esa Hiva va qo'shni xonliklar o'rtasida savdo markazlari bo'lib xizmat qilganligi ko'rsatilgan. Bundan tashqari, ular xonlikning Rossiya bilan savdo munosabatlarini rivojlantirishda juda katta ahamiyat kasb etgan²⁷.

Adabiyotlarning keyingi guruhini O'zbekiston mustaqilligi yillarida nashr qilingan tadqiqotlar tashkil qiladi. Bu davrda asosini tarixiy tadqiqotlarga yangi yondashuv qo'llanilgan ko'plab ishlar yaratilgan, mavjud muammolarga yangicha nazar tashlashga urinishlar bo'lgan. G.A. Mixalyova tadqiqotida savdo muammosi, undiriladigan bojlar batafsil ko'rib chiqilgan. Xo'jayli Amudaryoning chap qirg'og'idagi savdo markazlari qatorida ko'rib chiqilgan, xususan, muallif Rossiyadan kalayotgan karvonlar Xo'jaylida to'xtaganligi, u yerda tovarlar tekshiruvdan o'tib, baholanganligi to'g'risida ma'lumotlar keltiradi²⁸.

Mashhur Qoraqalpoqston etnografi X. Yesbergenovning «Qo'ng'irat» nomli²⁹ asari tadqiqotimiz uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi. U Qo'ng'iro't shahri va O'rta Osiyoning boshqa shaharlaridan turli hunarmandchilar va savdogarlarning Rossiya yarmarkalariga borganligi haqidagi ma'mumotlar ma'lumotlar keltiradi. Qo'ng'iro'tliklar Markaziy Osiyoning Kunya Urganch va Hiva kabi shaharlari bozorlarida ham savdo qilganlar, u yerga Amudaryo bo'ylar suv orqali yoki quruqlikdagi yo'llar orqali aravalarda borganlar. Asosan baliq, paxta, chorvachilik mahsulotlari (teri, jun, yog' va h.k.) bilan savdo qilganlar. Manbalarni tahlil qilib, Yesbergenov jadal savdo munosabatlari tufayli Qo'ng'iro't Markaziy Osiyoning yirik savdo va sanoat shaharlaridan biriga aylanganligini ta'kidlab o'tadi³⁰.

O'rta Osiyo shaharlari hayoti, aholi mashg'ul bo'lgan ishlari, hunarmandchilikka bag'ishlangan G.A. Agzamova tadqiqotida Rossiya savdo markazlari bilan savdo, iqtisodiy munosabatlar ko'rib chiqilgan, ushbu markazlar faoliyati, mintaqalarni bog'lovchi kommunikatsiyalar va yo'llarga baho berilgan³¹. D. Ziyoevaning O'zbekiston shaharlarining rivojlanishiga bag'ishlangan tadqiqotida Hiva xonligi va Amudaryo bo'limida joylashgan Qo'ng'iro't, Xo'jayli Nukus, Petro-Aleksandrovsk, Kyat, Shayx Abbos-Vali va boshqa shaharlar haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Xuddi shu muallifning boshqa asarida Xiva xonligida savdo, ixtisoslashtirilgan bozorlar, karvonsaroylar to'g'risida yangi materiallar va qimmatli kuzatuvlarni taqdim qilingan³².

²⁶ Тохтаметов Т.Г. Амударьинский отдел. – Нукус, 1977. - Б. 125.

²⁷ Джалилов О. XIX-XX аср бошларидаги Қорақалпоқ тарихига оид муҳим ҳужжатлар. - Тошкент, 1977; Ўша муаллиф. XIX-XX аср бошларидаги қорақалпоқ тарихидан (Хива давлат ҳужжатлари асосида). – Т., 1986. – Б. 64-65.

²⁸ Михалева Г. А. Узбекистан в XVIII- первой половине XIX века. Ремесло, торговля и пошлины. – Т.: ФАН, 1991. – Б. 47.

²⁹ Есбергенов Х. Қоңырат. Тарийхый хэм мәдений естеликлери. – Нөкис, 1993.

³⁰ Есбергенов Х. Ўша манба. – Б. 11-15.

³¹ Агзамова Д.А. XVI – XIX асрнинг биринчи ярмида Ўзбекистон шаҳарлари ва шаҳарлар ҳаёти: Тар. фан. д-ри. ... дис. – Т., 2000.

³² Зиева Доно. Ўзбекистон шаҳарлари XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида. – Т., 2017.

Chimboy shahrining tarixi A.Kudiyarovning³³ ishlarida batafsil yoritilgan. Mazkur ishning alohida qismida Chimboy bozori ko‘rib chiqilgan, unda iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq ravishda bozor savdosi tahlil qilingan, tovarlar assortimenti, hunarmandchilikning savdo ishlaridagi o‘rni tavsiflab berilgan³⁴.

Shaharlar iqtisodiy va madaniy hayot markazlari sifatida S. Saymanovning maqolalarida yoritilgan³⁵.

«Xorazm tarixi»³⁶ kitobi alohida e‘tiborga loyiq. Asarda Xorazm tarixining turli jihatlari, shu jumladan iqtisodiy rivojlanish, savdo masalalari aks etgan.

Tarixchi Sh.Yu. Oxunjonovanning maqolasi umuman bozor rivojlanishi nuqtai nazardan qiziqarli. Bozorning iqtisodiy ahamiyatidan tashqari, muallif bozorning ijtimoiy funksiyasini ham ko‘rib chiqqan, xususan, XIX asrning o‘rtalarida Farg‘ona vodiysida bozor nafaqat savdo munosabatlari amalga oshirilgan joy, balqi aholining hordiq chiqarish joyi, xabarchilar hukmdor farmonlarini e‘lon qiladigan joy bo‘lganligi ta’kidlanadi³⁷.

Qoraqalpoq bozorlarining etnomadaniy xususiyatlarini ochib berishda M.K. Nurmuxamedov ishi ham foydali bo‘ldi. Xususan, xotiralarga asoslangan «Xo‘jayli bozori» nomli hikoyasida bozor kunlari shahar hayotida katta ahamiyat kasb etganligi qayd etiladi, bu O‘rta Osiyo xalqlari tarixida savdo-sotiq juda katta ahamiyatga ega bo‘lganligini tasdiqlaydi³⁸.

Etnolog R. Ballievaning qoraqalpoqlarning an‘anaviy tabiatdan foydalanishiga bag‘ishlangan ishi yirik savdo markazlari, umuman savdoning shakllanishiga tabiiy-geografik omillarning ta’sirini aniqlashga imkon berdi. Tadqiqotchining ta’kidlashicha, iqlim qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining hajmi va turlariga ta’sir ko‘rsatgan, bu esa, o‘z navbatida, qoraqalpoq bozorlari tovarlari assortimentida aks etgan³⁹.

Bobning ikkinchi paragrafi **Sharq bozorlarining xorijiy tarixshunosligiga** bag‘ishlangan. Qoraqalpoq bozorining etnomadaniy o‘ziga xos xususiyatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar yo‘qligini ta’kidlab o‘tish kerak. Biroq Sharq bozorlari, ularning tarixi va o‘ziga xosligi ko‘rib chiqilgan bir qator ishlar mavjud.

Mahalliy bozorlar, savdogarlar, boj turlari, bojxona, qo‘shni mamlakatlar bilan savdo munosabatlari haqida qiziqarli ma’lumotlarni Aleksandr Berns keltiradi⁴⁰. O‘rta Osiyoga 1885 yilda kelgan Genri Lansdel Samarqand bozori, unda sotilgan gazlamalar turlari haqida qiziqarli ma’lumotlar qoldirgan⁴¹. Uning

³³ Кудияров А.Р. Основные занятия населения г. Чимбай // Город и городская культура в Южном Приаралье: история и перспективы. – Нукус, 2017. – Б. 81-84; Ўша муаллиф: История города Чимбая (XIX-начало XX вв.). – Нукус, 2019; Ўша муаллиф: Шымбай тарийхынан. – Нөкис, 2021.

³⁴ Кудияров А.Р. Шымбай тарийхынан. – Нөкис, 2021. – Б. 47-51.

³⁵ Сайманов С.С., Гулимбетов А. Виды налогов г. Кунграда в XIX в. // Город и городская культура в Южном Приаралье: история и перспективы. – Нукус, 2017. – Б. 91-93; Сайманов С. Историография истории городов Каракалпакстана // Научный Татарстан. – Казань, 2020. - № 2. – Б.16-23.

³⁶ Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. – Тошкент-Урганч, 2019.

³⁷ Охунжонов Ш.Ю. XIX аср ўрталари - XX аср бошларида Фарғона водийси бозорлари тарихидан // Scientific journal of the Ferghana State University. – Фарғона, 2019. - № 3. – Б. 64-67.

³⁸ Нурмухамедов М.К. Академик Марат Нурмухамедов. Прыжок. – Ташкент, 2020.

³⁹ Баллиева Р. Каракалпакский этнос и традиционное природопользование. – Т., 2022. – Б. 103-104.

⁴⁰ Berns Alexandr. Travels into Bokhara. 1843. – 439 p.

⁴¹ Lansdell Henry. Russian Central Asia (including Khokand, Bikhara, Kuldja and Merv). – London, 1885. Vol. 1. – 558 p.

yozishicha, Samarqand bozorlarida eng keng tarqalgan gazlama turi mahalliy hunarmandlar tomonidan ishlab chiqarilgan *fato* nomli gazlama bo'lgan. U paxta tolasidan tayyorlangan bo'lib, birgina Samarqandda uni ishlab chiqarish va sotish bo'yicha 40 ustaxona bo'lgan. Sayohatchi va yozuvchi Vays va fotograf Vestermann o'zlarining iste'dodlarini birlashtirib, eski islom dunyosi shaharlari bozorlarining ajoyib manzarasini yaratganlar⁴².

Turkiston bozorlari haqida qiziqarli ma'lumotlar Rossiyada Amerika elchisi Yudjen Skaylarning yozuvlarida uchraydi. XX asrning boshlarida u o'lkaning turli shaharlarida bo'lib, savdo, bozorlar, ishlab chiqarish sohasi haqida ma'lumotlar yig'ib borgan⁴³.

Tadqiqotchi L.Gaysinaning maqolasida Turkiston bozori madaniyatlararo dialog hodisasi sifatida ko'rib chiqilgan⁴⁴. Muallif bozorning "xarid qilish joyi, muloqot klubi, axborot agentligi, mehnat bozori, ko'ngilochar markaz" kabi funksiyalariga e'tibor qaratadi⁴⁵.

Ingliz tadqiqotchilari Devid va Syu Richardsonlar⁴⁶ ishini ham ko'rsatib o'tish zarur. Ishda qoraqalpoq bozoriga bag'ishlangan maxsus bo'limlar bo'lmasada, unda tarixiy voqealardan tashqari, qoraqalpoqlarning iqtisodiy rivojlanishi bilan bog'liq ayrim masalalar aks etgan. Ishning afzal tomonlaridan birini qoraqalpoq xalqi hayotining barcha jihatlarini aks etgan illyustratsiyalar tashkil qiladi.

Uzunlik, maydon, og'irlik, hajm o'lchovlari, narsalarning qiymati, vaqtni hisoblashni tavsiflashda M.Sh. Xolov va X.A. Kayumovalar⁴⁷ tadqiqoti foydali bo'ldi. Ye.L. Kubel⁴⁸ tadqiqotining ob'ekti ham an'anaviy qoraqalpoq bozori bo'ldi. Uning maqolasida Nukus va Chimboy bozorlarining tavsifi keltirilgan. Ye.L. Kubel, an'anaviy mahsulotlar turlariga urg'u bergan holda, tovarlar assortimenti haqida batafsil ma'lumotlar keltiradi. Xususan, bozorda sotiladigan go'sht, baliq turlari va navlari, nonning an'anaviy turlari ko'rsatilgan⁴⁹.

Bobning uchinchi paragrafi **Tadqiqotning manbaviy bazasining tavsifiga** bag'ishlangan. U nashr qilingan ishlar, arxiv materiallari, muallifning dala tadqiqotlari materiallarini o'z ichiga olgan. Tadqiqotda Qoraqalpoqiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi (quyida - QR MDA), shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi (quyida - O'zR MDA) materallaridan foydalanilgan.

Dala tadqiqotlari materiallari 2019 yildan boshlab to'plana boshlangan. Ma'lumotlarni to'plash Chimboy, Qorauzyak, Kegeyli, Qanliko'l kabi

⁴² Weiss W.M. Westermann K.-M. The Bazaar: Markets and Merchants of the Islamic World. – London, 1998. – 34 p.

⁴³ Schuyler Eugene. Turkestan. Notes of a Journey in Russian Turkestan, Khokand, Bikhara and Kuldja. Vol.1/ This edition in 2004. (First publication in 1870/) Printed in India. – New Delhi, 2004.

⁴⁴ Гайсина Л.Р. Базары в Русском Туркестане: попытка анализа опыта установления межэтнических связей // Молодой ученый. Т. 2. – Казань, 2011. – Б. 34-38.

⁴⁵ Гайсина Л.Р. Ўша манба. – Б. 34.

⁴⁶ Richardsons David and Sue. Qaraqalpaqs of the Aral Delta. 2012.

⁴⁷ Холов М.Ш., Каюмова Х.А. Метрология и хронология Восточной Бухары и Западного Памира (втор.половина XVIII-начало XX вв.). – Душанбе, 2013.

⁴⁸ Кубель Е.Л. Традиционный базар Каракалпакии (по материалам экспедиционной поездки 2012 года) // Торговля в этнокультурном измерении: Материалы Четырнадцатых Международных Санкт-Петербургских этнографических чтений. – Санкт-Петербург, 2015. – Б. 352-356.

⁴⁹ Ўша манба. – Б. 353.

qoraqalpoqlar yashaydigan tumanlarda hamda Nukus, Xo‘jayli, Shumanay, Qo‘ng‘irot, Taxiatosh kabi aralash aholi yashaydigan tumanlar va Nukus shahrida o‘tkazilgan. Dala tadqiqotlari o‘tkazish mavsumlarida to‘plangan ma’lumotlar o‘zining sifati va mazmuni bilan ajralib turadi. Har xil yoshdagi va ijtimoiy mavqei turli bo‘lgan kishilar respondent bo‘lganlar, lekin ularning asosiy qismini 1930-40-yillarda tug‘ilgan keksa avlod vakillari tashkil qilgan. Ular bilan suhbat davomida bozor hayotining turli jabhalariga oid eng qimmatli ma’lumotlar yig‘ilgan.

Shunday qilib, tadqiqotning adabiy, arxiv va dala materiallariga asoslangan manbaviy bazasi XIX asrda savdo, savdo aloqalari, Xorazm vohasi bozorlari haqidagi ma’lumotlarga ega ishlar miqdori ko‘pyanligidan dalolat beradi. Hiva xonligi 1873 yilda Rossiya tomonidan bosib olinganidan so‘ng matbuotda Xorazm vohasi, shu jumladan savdo va shahar bozorlariga bag‘ishlangan bir qator ocherklar va maqolalar e’lon qilingan.

Sovet davri adabiyotlari mazkur davrda mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy tarixiga qiziqish ortishi bilan tavsiflanadi. Vohaning qo‘shni mintaqalar bilan ham, Rossiya va Qozoqiston cho‘llari bilan ham savdo aloqalari faol o‘rganiladi. Savdo aloqalarini o‘rganishdan tashqari, tadqiqotchilar yirik savdo markazlari faoliyati, shuningdek mazkur keng ko‘lamli muammoning boshqa jihatlarini tadqiq qiladilar.

Mustaqillik davri adabiyotlari iqtisodiy munosabatlarni tarixiy nuqtai nazardan o‘rganishning nazariy jihatlarini ishlab chiqilgan nashrlar yaratilishi bilan ahamiyatli. Turli mintaqalarda bozorning rivojlanishi yoritilgan, shaharlarning rivojlanishida bozorning o‘rni, soliq tizim hamda mazkur muammoning boshqa jihatlarini tahlil qilingan bir qator ishlar yaratilgan.

Umuman olganda, dala tadqiqotlari, arxiv materiallariga asoslangan tadqiqotning manbaviy asosi qoraqalpoq bozorlarining o‘ziga xos etnomadaniy qiyofasi haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

«**An'anaviy bozor faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari**» deb nomlangan dissertatsiyaning ikkinchi bobi besh paragrafdan iborat. Birinchi paragraf «**Shahar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida bozor o‘rni**» deb nomlanadi. Unda shaharning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishida bozorning o‘rni ko‘rib chiqilgan. Janubiy Orolbo‘yi hududida eng yirik bozorlar Qo‘ng‘irot, Xo‘jayli, Chimboy, Petro-Aleksandrovsk (To‘rtko‘l), Nukus kabi shaharlarda joylashgan edi.

Yirik savdosi rivojlangan shaharlarining shakllanishi bozorning paydo bo‘lishi va rivojlanishi shart-sharoitlariga bog‘liq bo‘lgan. Bu tabiiy va iqlim omillari ham bo‘lishi mumkin edi, shahar yaqinida daryo yoki kanal mavjudligi yuklarni qayiqda tashish imkonini bergan. Katta savdo maydonchasi bo‘lgan shaharning rivojlanishida uning geografik joylashuvi muhim ahamiyat kasb etgan. Katta bozorlari bo‘lgan shaharlarning aksariyati yirik karvon yo‘llarida joylashgan edi. Katta bozorga ega shaharning shakllanishida ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadigan ko‘plab odamlarning mavjudligi kabi ijtimoiy-iqtisodiy omillar ma’lum rol o‘ynagan. Yirik bozorga ega shaharning shakllanishida ishlab chiqarish, xo‘jalik bilan band aholi sonining ko‘pligi kabi ijtimoiy-iqtisodiy omil muayyan o‘rin egallagan. Shunday qilib, shaharlarning yirik savdo markazlariga aylanishiga yordam bergan quyidagi omillarni shartli ravishda ajratib ko‘rsatish mumkin: 1. Tabiiy-iqlim sharoiti (qulay landshaft, daryo yoki kanal yaqinida

joylashganligi); 2. Geografik shart-sharoitlar (shahar yaqinidan o'tadigan karvon yo'li); ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar (xo'jalik munosabatlarning rivojlanganligi).

Qoraqalpoqlarda yirik savdo maydonchalariga ega shaharlar xuddi shu tamoyillarga ko'ra shakllangan. Qulay geografik joylashuvi, ya'ni Amudaryoning yaqinligi Xo'jaylining yirik savdo markaziga aylanishiga, yirik karvon yo'li bo'yida joylashganligi Qo'ng'irotning eng muhim savdo shaharlaridan biriga aylanishiga, hunarmandchilik markazlarining mavjudligi Chimboyda ham katta bozorning tashkil topishiga xizmat qilgan.

«**Savdogarlar tabaqasining shakllanishi, ayrim turdagi tovarlarning xususiyatlari**» deb nomlangan bobning ikkinchi paragrafi oldi-sotdi bilan shug'ullangan shaxslar toifasi, ya'ni savdogarlar tahliliga bag'ishlangan. Sotuvchi, savdogar so'zi qoraqalpoq tilida *sawdager* atamasi orqali ifodalanadi. Ushbu atama savdoni kasb qilib olgan shaxslarni, ya'ni sotish uchun boshqa shahar va mamlakatlardan tovarlar olib kelgan yoki o'zlari ishlab chiqargan mahsulotlarni sotgan kishilarga nisbatan ishlatilgan. Albatta, gap sovet savdosining rivojlanishidan oldingi davr haqida ketadi, bu vaqtda savdogarlik kasbi uzoq mamlakatlardan tovarlarni yetkazib berish bilan shug'ullanadigan odamlarning mehnatini ko'zda tutadi. Qoraqalpoqlar o'rtasidagi savdo-sotiqning o'ziga xos xususiyati, butun O'rta Osiyoda bo'lgani kabi, mayda savdogarlar ko'pchilikni tashkil etganligida ifodalanadi. Shahar va uning atrofidagi aholi savdo operatsiyalariga jalb qilingan edi.

XIX asr oxiri - XX asrning boshlarida tovarlarni olib sotish bilan shug'ullanuvchi mayda savdogarlar bilan bir qatorda beda urug'i, quritilgan mevalar, jun, baliq sotish bilan shug'ullanuvchi yirik savdogarlar paydo bo'lgan. Ularning faoliyati mahalliy bozorlardan tashqariga chiqqan. Ular o'z tovarlarini Qo'ng'irot, Kazalinsk, Orenburg shaharlariga olib chiqqanlar. Masalan, Sunnetbay, Kidirbay kabi mashhur chimboylik savdogarlar Orenburgdan Ak boget va Tog'iz tore orqali o'tgan karvon yo'llaridan Rossiya tovarlarining importi bilan shug'ullanganlar. Ag'abiy cherkes, Yaxshimbay, Xolmurod kabi savdogarlar Chimboy bozoriga Hiva va Urganchdan chopon, to'n, etik, ipak gazlamalari yetkazib berganlar⁵⁰.

Ushbu mayda savdogarlar orasida muayyan mahsulotni sotishga ixtisoslashgan shaxslar ham bo'lgan. Ular sotadigan mahsulot nomiga qarab ular quyidagicha nomlanganlar: *baqayshilar*, *nanbayshilar*, *chaypurishlar*, *nasibayshilar*, *shobitshi*, *daldalshilar* va boshqalar.

Bobning «**Qoraqalpoqlarning ixtisoslashgan bozorlarining xususiyatlari**» deb nomlangan keyingi paragrafi qoraqalpoq bozorlarining ixtisoslashtirilishiga bag'ishlangan. Har bir aholi punktida asosiy oziq-ovqat va sanoat mollari sotiladigan o'ziga xos bozor bo'lishidan tashqari, chorvachilik, parrandachilik, yem-xashak, hunarmandchilik, sut va boshqalar mahsulotlar sotishga ixtisoslashgan bozorlar mavjud edi. Ularda hamma narsani: qoramol, kiyim-

⁵⁰ Айымбетов Қаллы. Халық даналығы. – Нөкис, 1988. – Б. 268.

kechak, mato, mehnat qurollari, hunarmandchilik mahsulotlari, oziq-ovqat mahsulotlari va ko'plab boshqa narsalarni sotib olish mumkin edi.

XX asrning birinchi yarmida Chimboyda quyidagi ko'rinishdagi bozorlar mavjud edi, bular: *otin bazari* – o'tin bozori, *mal bazari* – mol bozor, *balıq bazari* – baliq bozori, *shapan bazari* – kiyim kechak bozori, *yetik bazari* – etik bozori, *g'alle bazari* – g'alla bozori, *shıpta bazari* – hunarmandchilik bozori, *qassap bazari* – go'sht bozori, *baqqal bazari* – baqqollik mahsulotlari bozori va boshqlar. Petro-Aleksandrovska bozorida 1904 yilda tovarlar quyidagicha ixtisoslashgan edi: a) To'qimachilik va baqqollik mollari; b) Non; v) Go'sht; g) Tayyor kiyim va oyoq kiyim; d) Mayda-chuyda mollar; ye) Idish-tovoqlar do'konlari⁵¹.

Ixtisoslashgan bozorlarning har biri o'ziga xos xususiyatlar va koloritiga ega bo'lgan. Ushbu bozorlar an'anaviy dunyo haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Zamonaviy ixtisoslashgan bozorlarda ilgarigi inshootalar saqlanmagan bo'lsada, an'anaviy savdo-sotiq amalga oshirilgan joylar, aholi hayotidagi ahamiyatini yo'qotmagan holda, o'z vazifalari va rolini bajarishni davom ettirmoqda.

Bobning to'rtinchi paragrafi **boj soliqlari, qoraqalpoqlarda og'irlik, uzunlik o'lchov birliklarini ko'rib chiqishga** bag'ishlangan. O'rta Osiyoda ham boshqa musulmon mamlakatlarida bo'lgani kabi savdo bojlarini soliqqa tortish tizimi mavjud edi. Savdo solig'i ham ichki, ham tashqi savdo operatsiyalaridan undirilgan.

Qoraqalpoq bozorlarida dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik va hunarmandchilik mahsulotlarini sotish imkoniyati uchun Hiva xonligining butun hududida mavjud to'lovlar to'langan. Bu, birinchi navbatda, savdo solig'i - *sawda Salıgı*⁵² yoki *zakot* bo'lgan. Bundan tashqari, soliqlarning quyidagi turlari mavjud bo'lgan: tarozidan foydalanish uchun to'lov - *tárezi pul*, vositachi (dallo) xizmati uchun to'lov - *dáldálshi haqı*, bozordagi o'rin uchun to'lov – *tag'jay (orin pul)*. Soliq yig'ish bilan maxsus odamlar shug'ullangan. Katta bozorlarda soliqchilar quyidagi toifalarga bo'lingan: 1. Hunarmandlardan soliq yig'uvchilar; 2. Turli tovarlardan soliq yig'uvchilar; 3. Savdo o'rni (do'kon) uchun soliq yig'uvchilar.

Metrologik tizim quyidagilardan iborat bo'lgan:

Batpan – botmon (og'irlik o'lchov birligi). Botmonning vazni asosan 6 puddan 12 pudgacha o'zgarib turgan. Qoraqalpoqlarda botmon har xil shaharlarda turlicha bo'lgan. Masalan, Chimboyda botmon 22 kg ni, Qo'g'irotda esa 40 kg tashkil qilgan. Aholi xotirasida *botmon* don mahsulotlari uchun asosiy o'lchov birligi bo'lganligi saqlanib qolgan: «*kunjut, tari (tariq) batpanda* o'lchangan. Ilgari kilogramm o'rniga hamma narsa *batpanda* hisoblangan»⁵³.

Botmon og'irligini oshirgan yoki kamaytirgan aniqlovchi so'zlar ishlatilgan, masalan, *Aur batpan* – og'ir botmon - 40 kg ni, *je'nil batpan* – yengil botmon - 22 kg ni tashkil qilgan. *Onseri* – 10 kg ga teng og'irlik o'lchovi; *Siyseri* – botmonning $\frac{3}{4}$ qismiga teng og'irlik o'lchovi; *Agarı* – funtning $\frac{1}{6}$ qismiga teng og'irlik o'lchovi. Hiva xonligida bu og'irlik o'lchovi 20 kg - botmonning $\frac{1}{320}$

⁵¹ ЎзМА., И-907-фонд, 1-рўйхат, 385-иш, 58-варак.

⁵² Алоҳида ҳужжатларда ушбу солиқ “бозор йиғими” сифатида келтирилган.

⁵³ Муаллиф дала материаллари № 9, 2021. Нукус / Аманбаева Сапаргул.

qismiga teng, ya'ni 62,5 gr⁵⁴ni tashkil qilgan. *Qirq (qirq) a'gari* 5 kg ni; *jigirma (yigirma) a'gari* 2,5 kg⁵⁵ ni tashkil qilgan; *Qadaq* – taxminan 400 g ga teng og'irlik o'lchovi; *Sherek* – funtning $\frac{1}{4}$ qismiga teng og'irlik o'lchovi.

Aksariyat xalqlarda, shu jumladan qoraqalpoqlarda uzunlikni o'lchashning eng qadimiy usuli bo'lgan tana a'zolari (qo'l, oyoq, qadam, qarich va boshqalar), insonning bo'yi kabilar xalq xo'jalik hayoti bilan bevosita bog'liq o'lchovlar bo'lib xizmat qilgan. Uzoq masofalarni belgilash uchun quyidagilardan foydalanilgan: - tash milya – 7-8 km ga teng uzunlik o'lchovi; *shaqirim* – versta, chaqirim. Qoraqalpoq tilida qo'l panjasi, qo'ldan foydalanilgan o'lchov tizimlari ham bo'lgan: *qulash* – qulochga teng uzunlik o'lchovi; *gez* – arshin; *suyem* – qo'l panjasi, cho'zilgan katta va ko'rsatkich barmoqlar orasidagi masofaga teng uzunlik o'lchovi; *qaris* – chorak, cho'zilgan bosh barmoq va kichik barmoq uchlari orasidagi masofaga teng uzunlik o'lchovi, taxminan arshinning $\frac{1}{4}$ qismiga teng; *yeli* – barmoq qalinligiga teng uzunlik o'lchovi.

Muomalada bo'lgan pul birliklari.

XIX asrning oxirida qoraqalpoqlarda xuddi Hiva xonligidagi kabi pullar muomalada bo'lgan: 1. Tilla - bir rubl sakson besh tiyin ruslar puliga teng tanga. Og'irligi Gollandiya chervonesiga teng Chervones, «du-tilla», ya'ni «ikki tilla» deb nomlangan, Xorazm shahrida Sayid-Muhammad-Bahodirxon nomi bilan zarb qilingan; aslida uning nominal narxi uch rubl oltmish tiyin bo'lsa-da, ba'zida u ancha qimmatga hisoblangan.

2. Kumush pullar «tenge» deb nomlangan; uning har biri rus pulining yigirma tiyinigga to'g'ri kelgan.

3. Mis pullar katta va kichikroq nominal va o'lchamdagi tangalardan iborat; ellikta kattasi yoki yuzta kichigi rus pulining yigirma tiyinigga teng. Umuman olganda, bu mis pullarning barchasi "felus" deb atalgan⁵⁶.

Yangi tartib o'rnatilishi bilan boshlangan metrik tizimning islohoti aholi tomonidan darhol qabul qilinmagan. Bunga muayyan iqtisodiy qiyinchiliklar to'sqinlik qilgan. XX asrning o'rtalariga kelib o'lchov vositalari metrologik tizimi butun SSSR hududida majburiyga aylangan va barcha tomonidan qabul qilingan, shu jumladan qoraqalpoqlarda ham.

Bobning oxirgi paragrafi «**Aholi kundalik hayotida savdo amaliyoti**». Unda aholi o'rtasida tadbirkorlik rivojlanishida bozorning o'rni ko'rib chiqilgan. Mintaqaning agrar o'ziga xos xususiyati ortiqcha mahsulotlarni sotishni ommaviy mashg'ulotga aylantirgan. Bozor iqtisodiy munosabatlarni rag'batlantirgan, buning natijasida qishloq aholisi va shahar aholisi o'rtasida iqtisodiy aloqalar rivojlangan. Bozor kuni qishloq aholisining aksariyati o'z mahsulotlarini sotish uchun bozorga borgan. Ularning ma'lum qismini hunarmandlar tashkil etgan bo'lib, ular ham iqtisodiy munosabatlarda faol ishtirok etganlar. Ular ichki savdoda sezilarli o'rin egallagan. O'rganilayotgan davrda hunarmandchilik savdo-sotiq va

⁵⁴ Давидович Е.А. Материалы по метрологии средневековой Средней Азии. – М., 1970. – Б. 79.

⁵⁵ Дала ёзувлари. Исмаилова Даулетбике. 1979 й. 15 август. Нукус, Павлов кўчаси, 20. Кутлымуратова Айсылу. 1904 йил туғилган. 75 яшар. Қорақалпоқ. Боклы кытай// ЎЗР ФА ККБ ҚҚГФИТИ Этнография бўлими архиви

⁵⁶Риза Кули Мирза. Краткий очерк Аму-Дарьинской области // Персидские принцы из дома Каджаров в Российской империи. – М., 2009. – Б. 477.

dehqonchilikdan hali uzil-kesil ajralib chiqmagan edi. Shuning uchun ko‘pincha buyurtmalar bo‘lmaganda yoki qishloq xo‘jaligi ishlari avj olgan paytda, hunarmandlar dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Odatda hunarmandning o‘zi o‘z mahsulotlarini bozorda sotish bilan shug‘ullangan.

O‘rganilayotgan davrda qishloq va shahar o‘rtasida tovar ayirboshlash yaxshi rivojlangan. Bu mintaqa aholisining iqtisodiy ixtisoslashuvidagi farqlarga asoslangan edi. Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari, shuningdek, hunarmandlar mahsulotlari ayirboshlash ob‘ektlari bo‘lgan.

Shunday qilib, an’anaviy bozor qoraqalpoq xalqining iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida juda katta rol o‘ynagan. Bozor nafaqat savdo-sotiq joyi, balki shahar manzarasi va aholi kundalik turmushining ajralmas qismi edi. XIX asr – XX asrning boshlarida yirik bozorlar Qo‘ng‘irot, Xo‘jayli, Chimboy, Petro-Aleksandrovska joylashgan. Ular tashqi ko‘rinishi va an’anaviy xususiyatlari bilan ajralib turgan.

Qoraqalpoq savdogarlari - *sawdager* - ham mintaqada, ham boshqa mamlakatlarda savdo qilganlar. Halqaro savdo-sotiq bilan shug‘ullangan savdogarlar Rossiyadan (Orenburg, Volgabo‘yi), shuningdek Qozog‘iston cho‘llaridan tovarlar olib kelganlar. Bozorlarga Toshkent, Buxoro, Hiva, Samarqand kabi Markaziy Osiyo shaharlaridan ham ko‘plab tovarlar yetkazib berilgan. *Sawdager*lardan tashqari, savdo operatsiyalariga jalb qilingan boshqa shaxslar – *alip satarlar* bo‘lgan. Savdogarlardan farqli o‘laroq, ular savdogarlar olib kelgan yoki boshqa shaxslar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xarid qilib, uni o‘zlari uchun foyda bilan sotganlar.

XIX asrda qoraqalpoqlarda quyidagi turdagi bozorlar bo‘lgan: *otin bazari* – o‘tin bozorlari, *mal bazari* – mol bozorlari, *baliq bazari* – baliq bozorlari, *shapan bazari* – kiyimg‘kechak bozorlari, *yetik bazari* – etik bozorlari, *g‘alle bazari* – g‘alla bozorlari, *shipta bazari* – hunarmandchilik bozorlari, *qassap bazari* – go‘sht bozorlari, *baqqal bazari* – baqollik mahsulotlari bozori va boshqalar. Ularning ayrimlari, masalan mol, baliq, g‘alla bozorlari bugungi kunda ham mavjud.

Qoraqalpoqlarning o‘ziga xos uzunlik va og‘irlik o‘lchovlari bo‘lgan. Ular tabiiy va sodda edi, masalan, uzunlik o‘lchovlari inson tanasining qismlari, vazn o‘lchovlari, asosan, xo‘jalik faoliyat bilan bog‘liq edi.

Qoraqalpoqlarda hunarmandchilikka asoslangan ishlab chiqarishning rivojlanishi qoraqalpoq xalqi xo‘jalik hayotida tarixiy ravishda yuzaga kelgan shart-sharoitlardan kelib chiqadi. Aholining aksariyat qismi dehqonchilik va chorvachilik bilan bir qatorda teriga ishlov berish, gazlama to‘qish, kiyim-kechak, oyoq kiyim yasash, temirchilik, kulolchilik, yog‘ ishlab chiqarish, tegirmonchilik kabi hunarlar bilan shug‘ullangan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Bozor madaniyat hodisasi sifatida**» deb nomlangan. U uch paragrafdan paragrafdan iborat, birinchisi «**Aholi madaniy hayotida bozorning o‘rni**» deb nomlangan bo‘lib, unda bozorning muloqot qilish, axborot almashish, tanishish joyi sifatidagi funksiyasi ko‘rib chiqilgan. An’anaviy bozorda mavjud bo‘lgan bayram, o‘yin-kulgi va muloqot muhiti uni umumxalq klubiga aylantirgan.

Har bir yosh toifasi vakillarining bozorga o'ziga xos qiziqishi bo'lgan. Keksa avlod uchun bu, ham ma'lumot almashish joyi, ham savdo operatsiyalari o'tkaziladigan joy edi. Butun oilaning boqishga mas'ul bo'lgan o'rta yoshli odamlar uchun bozor, birinchi navbatda, oziq-ovqat zahiralari to'ldirish va boshqa uy-ro'zg'or buyumlarini sotib olish manbai bo'lgan, ikkinchidan, u yangiliklar markazi, qarindoshlar va do'stlar bilan muloqot qilish joy rolini o'ynagan, yoshlar uchun - uchrashuv joyi bo'lib xizmat qilgan.

Bozorda uyushtirilgan ko'ngilochar tadbirlar dorbozlar chiqishlari, xalq teatri sahna ko'rinishlari, xalq xonandalari va baxshilari chiqishlari, polvonlarning an'anaviy kurashlaridan iborat edi. Qoraqalpoq bozorining ajralmas xususiyati, har qanday Sharq bozori kabi, folbin - *palker*, tabib - *tawip*, sartaroshlar kabi shaxslarning bozorda bo'lishida ifodalanadi.

Bobning ikkinchi paragrafi «**Sharbaq – dam olish va axborot almashish joyi**» deb nomlangan, u bozorga kelgan kishilar dam oladigan, ulovlar joylashtiriladigan joy – sharbaqqa bag'ishlangan. *Sharbaq* nafaqat dam olish joyi, boshpana, mollar va hayvonlarni joylashtirish makoni bo'lgan. Uning vazifalaridan biri muloqot va yangiliklar bilan o'rtoqlashish bo'lgan. Katta bozor kunlari bu yerga tanishlar va qarindoshlar bilan muloqot qilish, so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lish uchun atrofdagi hududlar aholisi kelgan. Qoraqalpoqlarning keksa avlodi uchun *sharbaq* hordiq chiqarish joyi bo'lgan.

Qoraqalpoqlar *sharbaqi* o'zida ham karvonsaroy, ham choyxona vazifalarini birlashtirgan holda, noyob hodisaga aylangan. Qoraqalpoq tili izohli lug'atida berilgan ta'rifga ko'ra, «*sharbaq*» atamasi bozorga kelgan yaqin atrofdagi ovullar aholisi dam olish uchun to'xtaydigan va ot-aravalar joylashtiriladigan joyni bildiradi⁵⁷. Qoraqalpoqlar *sharbaqi* - bu to'g'ri to'rtburchak shaklidagi katta hovli bo'lib, uning baland va keng darvozali baland loy devorlari bo'lgan, yuk ortilgan aravalar bu darvozalardan bemalol kirib-chiqishi mumkin bo'lgan. Hovli hududi shartli ravishda ikki qismga bo'lingan: odamlar uchun turar-joy va hayvonlar uchun joylar. *Sharbaq* egasining turar joyi hovliga kiraverishda joylashgan, uning ortida ijaraga beriladigan xonalar bo'lgan. Karvonsaroy devori bo'ylab qator shiyponlar bo'lib, ular ostida *sharbaqqa* kelganlar issiq mavsumda dam olish va choy ichish uchun joylashganlar. Hovlining qolgan qismini ot va eshaklarni bog'lash uchun ma'lum masofada yerga urilgan ko'plab qoziqlar egallagan.

Umuman olganda, keltirilgan materiallar qoraqalpoqlarda sharbaqlarning vujudga kelishining sababi savdo-sotiq, iqtisodiy munosabatlarning jadal rivojlanishi bo'lganligidan dalolat beradi. *Sharbaqlar* shaharlarda joylashgan, yo'lovchi, sayyohlar va savdogarlar uchun maxsus mo'ljallangan joylar bo'lib, u yerda yuk ortiladigan hayvonlarini joylashtirish imkoni bo'lgan. *Sharbaqning* asosiy vazifalari qo'shxona, boshpana berish, dam olish imkoniyati, bozorga kelganlarga tushlik qilish uchun joy berish kabilardan iborat bo'lgan. Bundan tashqari, bu yer tovarlar, yuklarni tushirish va hayvonlarni joylashtirish joyi bo'lgan. *Sharbaqning* yana bir muhim jihati - u axborot almashish joyi bo'lganligidan iborat. Shunday qilib, sharbaq sezilarli ijtimoiy o'rin egallagan.

⁵⁷ Қарақалпақ тилинің түсіндірме сөзлігі. 4-т. – Нөкіс, 1992. – Б. 509.

An'anaviy hayotning ushbu elementi o'tgan asrning o'rtalariga kelib o'z ahamiyatini yo'qotib boradi. Buning asosiy sababi shahar infratuzilmasining rivojlanishi, mehmonxona ko'rinishidagi muassasalarning paydo bo'lishi bo'lgan.

Bobning oxirgi paragrafi «**Qoraqalpoq folklorida savdogarlar va savdo-sotiq**» deb nomlanib, u savdo-sotiq joylari, savdo faoliyati, savdogarlarni tavsiflab bergan qoraqalpoqlar folklor asarlariga bag'ishlangan. Xalq og'zaki ijodida savdogarlar haqida turli tasavvurlar keltirilgan, lekin biz tomondan tahlil qilingan asarlarda, asosan, ularning salbiy obrazi aks etgan. Folklor asarlarida *sawdager* yolg'onchi va firibgar, tama'gir va g'arazgo'y odam sifatida ko'rsatilgan. Ijobiy qahramon sifatida savdogar kamdan-kam uchraydi. Savdogarlar salbiy aks ettirilgan asarlar – bu ertaklar, maqol va matallar, epik asarlar, faqat rivoyatlar va tarixiy hikoyalarda *sawdager* ijobiy tavsiflangan bo'lishi mumkin.

Bu materiallar qoraqalpoq xalq og'zaki ijodidagi savdogarlar, umuman savdo, savdo joylari haqidagi tasavvurlarni to'liq aks ettiradi. Bu tasavvurlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin: 1) xalq og'zaki ijodi asarlarida shakllangan savdogar obrazi xalqning ushbu qatlamga nisbatan qarashlariga qay darajada mos keladi; 2) xalq og'zaki ijodi asarlari ma'lum darajada qoraqalpoqlarning savdo munosabatlari tarixiga oid mavjud ma'lumotlarni to'ldiradigan qiziqarli manba bo'lib xizmat qiladi; 3) qoraqalpoqlar xalq og'zaki ijodidasavdo-sotiq o'z o'rnini topgan. Shuni ham ta'kidlash kerakki, qoraqalpoqlar tarixiy xotirasida savdo-sotiq va savdogarlar bilan bog'liq ko'plab tushunchalar saqlanib kelmoqda.

Bobga yakun yasab, ta'kidlash mumkinki, bozor insonlarga uchrashish, muloqot qilish va axborot almashish imkonini bergan holda jamiyatning ijtimoiy hayotida muhim o'rin egallaydi.

Bozor nafaqat savdo-sotik va savdoviy kommunikatsiyalar makoni, balki madaniy markaz, *masqarapazlar*, dorbozlar, qo'g'irchoqbozlar, polvonlar chiqishlari kabi xalq tomoshalari o'tkaziladigan joy bo'lgan. Yil sayin ushbu ko'ngilochar tadbirlar qayta ishlangan, tomoshabinlar talablariga moslashtirilgan va ayni paytda ularning didi va talablarini shakllantirgan. Barcha tomoshalarda oddiy tomoshabinlar qatnashishi mumkin bo'lgan. Ko'ngil ochish uchun boshqa ob'ektlar bo'lmaganligi qoraqalpoq bozorini muayyan ma'noda xalq madaniy hayotining markaziga aylantirgan.

Qoraqalpoqlarda *sharbaq* nafaqat dam olish joyi, balki bog'lanish, aloqa qilish joyi bo'lgan. U yerda do'stlar, tanishlar, qarindoshlar uchrashib, yangiliklar, olingan hosil, tovarlar va narxlarni muhokama qilganlar, bilim, tajriba almashganlar. *Sharbaq* hodisasi etnomadaniy o'ziga xoslikni saqlab kelgan, u hordiq chiqarish amaliyoti, mentallikni o'z ichiga olgan. Bularning barchasi qoraqalpoq sharbaqini etnik madaniyatning o'yg'un tarkibiy qismiga aylantirgan.

Savdo, savdogarlar qoraqalpoqlar xalq ijodida o'z aksini topgan. Matallar, maqollar, ertaklar kabi folklor asarlari mazmunida qoraqalpoqlar tarixining qadimiy qatlamlari aks etgan. Ular savdo-sotiqning milliy o'ziga xos jihatlarini, savdogarlarga munosabatni, savdo-sotiq bilan bog'liq odatlarni tasavvur qilish imkonini beradi.

XULOSA

Qoraqalpoq bozorlari etnomadaniy xususiyatlarini tadqiq qilish quyidagi xulosalar chiqarish imkonini berdi:

1. Ilmiy adabiyotlar, noyob arxiv hujjatlari, dala materiallari tahlili asosida qoraqalpoq bozorlarining etnik o'ziga xosligi va faoliyatni amalga oshirish xususiyatlari turli jihatdan o'rganildi. Tadqiq qilingan muammoga oid o'rganilgan manbalar va adabiyotlar shundan dalolat beradiki, XIX asrdan boshlab Xorazm vohasining savdo-sotiq, savdo aloqalari, bozorlari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan asarlar soni ortib borgan. XIX asrning so'nggi choragiga kelib matbuotda Xorazm vohasi, jumladan, shahar bozorlaridagi savdoga oid bir qancha ocherk va maqolalar nashr qilingan. Bu davrdagi asarlar, umuman olganda, tanishtiruvchi xarakterga ega bo'lganligiga qaramay, ularda aholi, u shug'ullangan kasb-hunarleri, hunarmandchilik, shaharlar, savdo-sotiqqa oid ma'lumotlar mavjud bo'lib, eng yirik qoraqalpoq bozorlarining etnomadaniy xususiyatlarini ma'lum darajada aks ettirgan.

2. Sovet davri tadqiqotlarida mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy tarixiga qiziqish kuchaygan, bu esa vohaning savdo aloqalarini, yirik savdo markazlari faoliyatini, shuningdek, mazkur muammoning boshqa jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarning faollashganida o'z ifodasini topgan.

1990-yillar boshlarida – O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka ega bo'lgandan so'ng, iqtisodiy munosabatlarni tarixiy o'rganishning nazariy jihatlari, shu jumladan, turli mintaqalarda bozor rivojlanishi, uning urbanizatsiya jarayonlaridagi o'rni, mavjud soliq tizimi hamda mazkur muammo bilan bog'liq boshqa jihatlariga bag'ishlangan ishlar tadqiqotchilar diqqat markazini egallaydi. Biroq qoraqalpoq bozorlarining etnomadaniy xususiyatlari juda kam o'rganilgan mavzulardan biri bo'lib qolavergan. Qoraqalpoqston tarixshunosligida mazkur muammo bo'yicha keng qamrovli umumlashtiruvchi tadqiqot xanuzgacha amalga oshirilmagan.

3. O'rganilayotgan davrda minatqada savdo munosabatlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Eng yirik bozorlar Qo'ng'iro't, Xo'jayli, Chimboy, To'rtko'l kabi shaharlarda joylashgan edi. Ularning har biri takrorlanmas etnik o'ziga xosligi bilan ajralib turgan, bu ularning joylashuvi, tovarlar assortimenti, ish kunlari, yo'lovchi, sayyohlarning qo'nish joyi mavjudligi va boshqalarda aks etgan. Bu ularni nafaqat muhim savdo markazlari, balki xalq etnik madaniyatining tashuvchisi va tarqatuvchisiga aylantirgan.

4. O'rganilayotgan davrda savdo-sotiq aholi turmush darajasiga ta'sir qilgan muhim omil bo'lgan. XIX-XX asrlarda qoraqalpoqlar o'rtasida yirik savdogarlar – *sawdager* paydo bo'lishi savdo-sotiqning kuchayishidan dalolat beradi, ular faoliyati nafaqat ichki savdo, balki tashqi savdo maydonlarida ham amalga oshgan. Chimboy va Xo'jayli shaharlaridagi yirik tadbirkorlar o'z tovarlarini Rossiya bozorlariga, shu jumladan Nijniy Novgorod yarmarkasiga jo'natganlar, shuningdek ular Qozog'iston cho'llarida faol savdo qilganlar.

5. Qoraqalpoqlarning ixtisoslashgan bozorlari o'ziga xosligi, koloriti bilan ajralib turgan. Tovarlarini turlarga bo'lish mavjud tizimi barcha yirik bozorlarga

xos bo'lgan. Mahsulotga bog'liq ravishla ixtisoslashish alohida bozor yoki bozor ichidagi savdo rastalari ko'rinishiga ega bo'lgan. Alohida maxsus joyda joylashgan ixtisoslashgan bozorlar ichida mol bozorlar - *mal bazar*, o'tin bozorlar - *otin bazar*, yem-xashak bozorlari kabilarni sanab o'tish mumkin. Aynan ushbu bozorlar yorqin ifodalangan etnik madaniyat tashuvchilari bo'lgan.

6. Qoraqalpoqlar metrik tizimi Hiva xonligida tarqalgan o'lchov tizimiga o'xshash bo'lgan. 1917 yilda yangi tartib o'rnatilishi bilan boshlangan metrik tizimning islohoti, muayyan ijtimoiy-iqtisodiy sabablarga ko'ra, aholi tomonidan darhol qabul qilinmagan. Natijada qoraqalpoqlarda o'lchov vositalarining o'ziga xos tizimi hosil bo'lgan. Biroq XX asrning o'rtalariga kelib butun SSSR hududida qabul qilingan o'lchov vositalari metrologik tizimi qoraqalpoqlarda ham majburiyga aylangan.

Savdo munosabatlari, soliq solish tizimi, shuningdek uning nazorati tegishli organlar va shaxslar tomonidan tartibga solingan. Soliq solish tizimi mavjud bo'lib, uni maxsus kishilar - *bajman* lar tartibga solgan. Keyinchalik ularning vazifalari *bazarkom*larga o'tgan.

7. Bozor madaniyatiga bevosita savdo faoliyati bilan shug'ullanmagan, lekin uning bir qismi bo'lgan ijtimoiy qatlamlar ham ma'lum hissa qo'shgan. Bular dorbozlar, qo'g'irchoqbozlar, *masqarapaz*lar, polvonlar bo'lib, ular tufayli bozor san'atning tomosha shaklining tarqalgan joyiga aylangan. Ulardan tashqari bozorda sayyoh darvishlar, folbinlar, ashulachilarni uchratish mumkin edi. Aholi turli qatlamlari, turli kasb-hunarlar, toifalarning o'zaro ta'siri va kesishishi jamiyat hayoti va faoliyatini rag'batlantirgan.

8. Qoraqalpoqlarning bozorga kelgan kishilar dam oladigan, ulovlar joylashtiriladigan joyi, ya'ni *sharbaq* – o'ziga xos madaniy-tarixiy xodisa bo'lgan. Qoraqalpoqlarda *sharbaq* kam uchraydigan, qoraqalpoq xalqi voqeligining ma'noviy o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirgan ijtimoiy elementlardan biri bo'lgan. Savdo-sotiq, iqtisodiy munosabatlarning jadal rivojlanishi ular paydo bo'lishining sababi bo'lgan. Ular bozor mavjud bo'lgan har bir shaharda bo'lgan. Ot-aravalarini joylashtirish kabi utilitar funksiyasidan tashqari, u dam olish, aloqa qilish joyi, shuningdek, an'anaviy "oshxona" ham edi. Ya'ni *sharbaq* muayyan ijtimoiy funksiyalarni ham bajargan.

9. Savdogarlar, savdo-sotiq, savdo shartnomalari, bitimlari kabilari haqidagi tasavvurlar xalq ijodining ko'plab asrilarida aks ettirilgan. Ular qoraqalpoqlarning mazkur tabaqalar vakillari to'g'risidagi tasavvurlarini juda to'liq aks ettiradi. Qoraqalpoqlarning xalq og'zaki ijodi asarlarining tahlili, savdogarlarga nisbatan ham ijobiy, ham salbiy munosabat bo'lganligini ko'rsatadi. Umuman olganda, xalq og'zaki ijodi asarlari qoraqalpoqlar savdo munosabatlari tarixi bo'yicha mavjud ma'lumotlarni muayyan darajada to'ldiruvchi qiziqarli manba sifatida xizmat qiladi, savdo-sotiq xalq og'zaki ijodida o'z o'rnini topgan. Shuni ham ta'kidlash kerakki, qoraqalpoqlar tarixiy xotirasida savdo-sotiq va savdogarlar bilan bog'liq ko'plab tushunchalar xalq og'zaki ijodi asarlari ko'rinishida saqlanib kelmoqda.

Taklif va tavsiyalar:

Qoraqalpoq bozorini ilk bor maqsadga muvofiq o'rganish tajribasi quyidagi amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi:

- dissertatsiya materialari qoraqalpoq etnologiyasi bo'yicha tadqiqotlarda, shuningdek darslik va o'quv qo'llanmalar, internet-sahifalarida mazkur mavzu bo'yicha maxsus bo'limlar yaratishda foydalanishi mumkin;

- tadqiqot materiallaridan Qoraqalpoqston Respublikasi tarix va madaniyat muzeyida, shuningdek, uning filiallarida davrning etnik o'ziga xosligini xolisona ko'rsatish uchun ekspozitsiyalar yaratishda foydalanish;

- an'anaviy bozor xalq madaniyatining bir qismi bo'lganligi sababli, unga oid masalalar oliy o'quv yurtlarida "Etnologiya" maxsus kursiga kiritilishi zarur;

- an'anaviy bozor xalq madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, turizmni rivojlantirish uchun uslubiy ma'lumot sifatida alohida qiziqish uyg'otadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PhD.03/30.12.2019.Tar.20.05 ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**КАРАКАЛПАКСКИЙ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ
ИНСТИТУТ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

АКИМНИЯЗОВА ГУЛНАЗ АБДИНАЙИМОВНА

**ТРАДИЦИОННЫЙ КАРАКАЛПАКСКИЙ БАЗАР: ОСОБЕННОСТИ,
СПЕЦИАЛИЗАЦИЯ, ТОРГОВЦЫ
(вторая половина XIX – первая половина XX века)**

07.00.07– Этнография, этнология и антропология

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам**

Нукус – 2023

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии № В2022.4.PhD/Tar1266

Диссертация выполнена в Каракалпакском научно-исследовательском институте гуманитарных наук Каракалпакского отделения Академии наук Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.karsu.uz) и Информационно-образовательного портале «Ziyouet» (www.ziyouet.uz).

Научный руководитель: Курбанова Земфира Ибрагимовна
доктор исторических наук, с.н.с.

Официальные оппоненты: Зунунова Гулчехра Шавкатовна
доктор исторических наук, с.н.с.

Маткаримова Садокат Максудовна
доктор исторических наук, доцент

Ведущая организация: Самаркандский Государственный университет им. Ш. Рашидова

Защита диссертации состоится « 17 » X 2023 года в 14:00 часов на заседании Научного совета Ph.D.03/30.12.2019.Tar.20.05 при Каракалпакском государственном университете. (Адрес: 230100, г. Нукус, улица Ч. Абдилова, №1. Тел.: (99361) 223-60-49; Факс: (361) 223-60-49; e-mail: karsu_info@edu.uz.)

С докторской диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета (зарегистрировано за № 155) (Адрес: 230100. г. Нукус, улица Ч. Абдилова, №1. Тел.: (99361) 223-60-49; Факс: (361) 223-60-49)

Автореферат диссертации разослан « 04 » X 2023 года.
(Протокол реестра за № 4 от «04» X 2023 года).



[Signature]
Р.Б. Баллиева
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук, профессор

[Signature]
Х.М. Отегенов
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент

[Signature]
Б.А. Кошанов
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (Аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В современных мировых этнологических исследованиях проблема традиционного восточного базара остается одной из актуальных. Базары восточных стран являются важным элементом культуры и экономики региона, изучение их развития, изменений во времени, способствует лучшему пониманию истории и культуры этих стран. Кроме того, традиционный базар служит местом социального взаимодействия и обмена информацией, что делает данную тему особенно привлекательной для этнологов.

Исследования, проводимые ведущими научными центрами сосредоточены на изучении традиционного базара (рынка), как места взаимовлияния материальных и социальных инноваций, культур, в результате которого формируется неповторимый облик городов Востока. Комплексному исследованию современной Азии, сосредоточив внимание на изучении роли рынков в соединении местных сообществ с более крупными сетями торговли, культуры и политической власти, занимаются такие научные центры как Центр исследований Азии в Нидерландах¹; Школа международных исследований Джексона при Вашингтонском университете (The Jackson School of International Studies at the University of Washington)², Лаборатория социальной антропологии (Collège de France, le Laboratoire d'anthropologie sociale), научная деятельность которого охватывает большую часть мира, крупные темы этнологии и социальной антропологии³, Институт Гарримана при Колумбийском университете (The Harriman Institute at Columbia University)⁴, Международный Центр антропологии⁵ и мн.др. Базар, как жизненно необходимая часть для любого города или населенного пункта являлся механизмом, обеспечивавшим функционирование сложившейся системы торговых контактов в экономическом пространстве эпохи. В частности, в этнологических исследованиях вопросы традиционного базара рассматриваются в контексте «антропологии рынка».

В Узбекистане, изучение особенностей традиционного базара представляется важным для понимания этнокультурных процессов в стране. Базар в странах Центральной Азии имел специфические этнокультурные черты, обусловленные тем местом, которое он занимал в перераспределении материальных и социальных новаций, инокультурных влияний, взаимодействие которых формировало его неповторимый колорит. В повседневной жизни жителей городов, аулов традиционный базар не только был важным механизмом выживания, элементом организации городского или сельского пространства, также выполнял роль транслятора культурных

¹ International Institute for Asian Studies // <https://www.iias.asia/the-newsletter/article/bazaars-crossroads-what-they-reveal-about-informality-globalization-and>

² Школа международных исследований имени Генри М. Джексона // <http://jsis.washington.edu>

³ Arts et techniques / <http://las.ehess.fr/index.php?2618>

⁴ The Harriman Institute at Columbia University // The Harriman Institute at Columbia University

⁵ Национальный исследовательский университет «Высшая школа экономики» // <https://hist.hse.ru/ica/>

традиций народа. Огромно значение базара как информационного центра, места, формирования общественного мнения.

Традиционный каракалпакский базар обладает специфическими этнокультурными чертами. Он являлся составной частью культуры, сохраняющей в себе традиционные ценности, народные обычаи. Он же был местом, где происходил культурный и информационный обмен. Пространство базара способствовало, к тому же, духовному обогащению и единению людей, где в торговых сделках участвовали представители различных слоев населения. Немаловажное значение базар имел в освобождении от накопившейся за неделю усталости и напряжения. Культурных отдых, заключающийся в созерцании различных состязаний и театральных постановок, общение с близкими людьми, позволял набраться положительных эмоций до следующего базара. На современном этапе актуализация изучения традиционного базара связана с тем, что современное общество все чаще позиционирует его в качестве маркирующего элемента своей этнической культуры.

